



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 9 - iyun

VI-47-62-11-154-K/22

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tumanida 2022-yil I choragi mobaynida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27,29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-43-21-11-154-K/22--sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy

Nizomning 27-bandiga asosan 2022-yil 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri v.v.b A.Ergashevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

- 2022-yilning I choragida “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar 1- va 2-ilovaga muvofiq;

- 2022-yil I choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

-2022-yil I choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Ergashev), mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi (B.Imomaliyev), yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (N.Karimov) hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda joriy yilning iyul oyida o‘tkaziladigan “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Ergashev), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Soliyeva) tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (H.Akbarov), ijrosini ta‘minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Mirzahalilov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2022 yil 9 iyundagi
VI-47-62-11-154-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	80 591,3
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	5 827 759,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	0,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	0,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	0,0
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	5 908 350,3

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2022 yil 9 iyundagi
VI-47-62-11-154-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha MA'LUMOT

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ming,so'm		
			o'lchov birligi	ko'rsatkichar miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar		umumiy uzunligi		
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		
	jami	0	X	X	0

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2022 yil 9 iyundagi
VI-47-62-11-154-K/22-son qaroriga
3-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakillantirilishi yuzasidan

MA'LUMOT

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakillantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	4 971 759,0				4 971 759,0	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	695 400,0	0,0	0,0	0,0	856 000,0	160 600,0	
2.1.	erkin qoldiq mablag'lari	695 400,0				856 000,0	160 600,0	2021- yildan bo'lgan qarzdorlik o'tkazib berilgan
2.2.	daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi						0,0	
2.3.	Shu jumladan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						0,0	
2.4.	elektron savdo maydonchasida er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar						0,0	
2.5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5250 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar						0,0	
3	Jami ajratilgan mablag'lar	5 667 159,0	0,0	0,0	0,0	5 827 759,0	160 600,0	

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2022 yil 9 iyundagi
VI-47-62-11-154-K/22-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

MA'LUMOT

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlari soni	shundan			SMS oraqali	tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi uchun ochilgan hisobvaraqa	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)				Qoldiq mablag'lar
			onlayn ovozlari	oflayn ovozlari	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati				Tadbirni amalga oshirish qiymati	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qililib, jamg'armaga qaytarilgan mablag'lar	
1	1510400025	5 384	16	0	5 368	Beglar mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi infratuzilmasini yaxshilash (1 ta svetofor o'rnatish, 2 dona TP o'rnatish, 30 dona tayanch ustun o'rnatish, ichki yo'lni asfaltlashtirish)	401722860302127065200110003	565 000	565 000				0
2	1510400052	4 386	97	0	4 289	Buvayda MFYni Quvonch, Ariq bo'yi, Obod maskan, Saxovat, Oybek va Oydin manzil kuchalarida infra tuzilmani yaxshilash	401722860302127065200110004	1 000 000	1 000 000				0
3	1510400158	3 860	7	0	3 853	Cho'mbog'ish MFY Obi hayot ko'chasi, Yoshlik kuchalarini infratuzilmasini yaxshilash	401722860302127065200110005	550 000	550 000				0
4	1510400107	3 524	21	0	3 503	Yakkatol qishlog'i qutlug' qadam ko'chasidan Turk qishlog'i farovon yo'li ko'chalarini 2 km qismini asfalt qilish ishlari	401722860302127065200110006	700 000	700 000				0
5	1510400143	3 392	1	0	3 391	Ing'irchoq MFY binosi oldiga Elektr TP va 30 dona opora o'rnatish	401722860302127011204018001	90 000	130 000				0
6	1510400166	3 356	2	0	3 354	Buvayda tumani Yangiqishloq MFY Yaangiqishloq'ni asosiy yo'lini asfalt qoplamasi bilan qoplash yo'li uzunligi 20 kilometr	401722860302127065200110007	1 000 000	1 000 000				0
7	1510400035	3 213	4	0	3 209	Oydinko'l qishlog'ida yuqori kuchlanishli 350 metr tarmoq tortish va TP-100 KVA transformator o'rnatish	401722860302127011204018002	250 000	250 000				0
8	1510400041	2 688	4	0	2 684	Oleazor ko'chasi 800 metr asfalt qilish maktab yo'li	401722860302127065200110008	300 000	300 000				0
9	1510400038	2 611	5	0	2 606	Xo'jabod MFY Obod ko'chasining 600 metr qismini asfaltlashtirish	401722860302127065200110009	210 000	210 000				0
10	1510400057	2 494	12	0	2 482	24-maktabni issiqlik tizimini tamirlash	401722860302127092100075003	500 000	500 000				0
11	1510400081	2 089	7	0	2 082	Buvayda tuman XTB 8-maktabni joriy ta'mirlash	401722860302127092100075004	826 000	500 000				0
12	1510400142	2 022	12	0	2 010	Fargona viloyati Buvayda tumanidagi 25-maktabni parta, stol, stul,doska,eshik va mebel jixozlari bilan ta'minlash	401722860302127092100075005	500 000	500 000				0
Jami								6 491 000	6 205 000	-	-	-	0